

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

“NURALI” DOSTONINING QIYOSIY TAHLILI (SHOMUROD SHOIR VA FOZIL YO‘LDOSH O‘G‘LI VARIANTLARI MISOLIDA)

Kamoliddin Egamqulov Samad o‘g‘li

ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Chiroqchi dostonchilik maktabi vakili Shomurod shoir va Bulung‘ur dostonchilik Maktabi vakili Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan “Nurali” dostoni variantlari qiyosiy tahlil qilindi. Ikkala variantda o‘xshash va farqli jihatlari, obrazlar tizimi, baxshilarning o‘ziga xosligi tahlil asosida ko‘rsatib o‘tildi.*

Kalit so‘zlar: *an‘ana, baxshi, doston, repertuar, badihago‘ylik, nag‘ma, terma.*

Annotation. *In this article, the versions of the poem "Nurali" sung by the poet Shomurod, a representative of the Chirakchi epic school, and Fazil Yoldosh, a representative of the Bulungur epic school, were compared. The similarities and differences, the system of images, the uniqueness of the gifts in both versions were shown on the basis of the analysis.*

Key words: *tradition, bakhshi, epic, repertoire, intrigue, drum tune, terma.*

“Nurali” dostoni “Go‘ro‘g‘li” nasliy turkum dostonlar sirasiga kiradi¹. “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarda, asosan, Go‘ro‘g‘li, o‘g‘illari Hasanxon va Avazxon, nevaralari Nurali, Sherali, Ravshan, Jahongirxonlarning sarguzashtlari tasvirlanadi. M. Mirzayeva “Go‘ro‘g‘li” nasliy turkum dostonlarni ikki qismga, Go‘ro‘g‘lining ikki asrab olgan o‘g‘illari “Hasanxon” va “Avazxon” nomli dostonlar, ularning farzandlari bilan davom etadigan ikki tarmoqqa ajratadi². “Nurali” dostoni “Avazxon” dostonining nasliy turkumliligini davom etadi.

“Nurali” dostoni “Go‘ro‘g‘li” dostonining nasliy turkumiga kirishidan tashqari “Nurali” biografik turkumlikni ham tashkil qiladi. Folklorshunos olim T. Mirzayev o‘zining “Xalq baxshilarining epik repertuarlari” ilmiy risolasida asos “Go‘ro‘g‘li” turkumi bo‘lsa, u o‘z ichida kichik, “Hasanxon”, “Avazxon”, “Nurali”, “Ravshan” biografik turkumlarni tashkil etishini izohlaydi³. Folklorshunos Qayum Mamashukurov “Nurali turkum dostonlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari” mavzusida tadqiqot ishi olib borar ekan, dissertatsiyasida “Nurali” biografik turkumni asosiy uchta doston “Nurali”, “Nuralining yoshligi”, “Malla savdogar” dostonlari tashkil etishini aytib, Nurali bilan bog‘liq bir qancha dostonlarni shu uchta dostonning variant va boshqacha nomlanishi (“Gulgun pari”, “Avaz va Oyzaynab”,

¹ Qarang: Мамашукуров Қ. Нурали туркум дostonлари хақида. //XX аср ўзбек фольклоршунослиги антологияси. – Тошкент: О‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – Б. 373-381. // Мирзаева М. Халқ дostonларида туркумлик масаласи // Ўзбек халқ ижоди. – Т., 1967. – Б.59-65. // Эргашев А. Қашқадарё-Сурхондарё дostonчилигининг умумўзбек эпоси тараққиётидаги ўрни. Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2021. – Б. 148-205

² Мирзаева М. Халқ дostonларида туркумлик масаласи // Ўзбек халқ ижоди. – Т., 1967. – Б.59-65.5

³ Мирзаев Т. Халқ бaxshиларининг эпик репертуари. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.129-138.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

“Mayda savdogar”, “Nurali bilan Gulnor”) deb keltiradi⁴. T. Mirzayev esa “Nurali” beografik turkumga “Nuralining yoshligi”, “Jorxun maston”, “Nurali”, “Nurali va qari Ahmad”, “Nuralining yutilishi”, “Malla savdogar” dostonlarini sanab o‘tadi⁵. Shu ma’noda “Nurali” dostonining kuylanishi bilan bog‘liq ijrolar ham o‘ziga xos bo‘lgan. Doston variantlarining umumiy va o‘ziga xos jihatlari ijrochilik maktablari yoki baxshilar mahorati bilan izchillikda namoyon bo‘ladi.

“Nurali” dostonining bir qancha baxshilar tomonidan kuylanishi, variantlarning paydo bo‘lishi tahlil uchun muhim obyekt bo‘la oladi. Bu doston, asosan, Qashqadaryo va Surxondaryo baxshilari orasida kengroq ommolashgan⁶. Uning Tog‘ay shoir Maxmon o‘g‘li (Akromov Xolmirza 1931), Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li (Buyuk Karimov 1937), Umir Safarov (M. Alaviya 1957), Ro‘ziyev Qo‘zi (M. Alaviya 1957), Tosh shoir Chorshanba o‘g‘li (M. Afzalov, Muhammad Saidov 1957), Mulla Xolnazar (Hazratqul baxshi Xudoyberdi o‘g‘li 1981) kabi baxshilardan yozib olingan variantlarining qo‘lyozma nusxasi O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutining arxivida saqlanadi. Dostonning faqatgina Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti nashr etilgan⁷.

Shomurod Shoirdan Nuriddin Aminjonov yozib olgan “Nurali” dostonining audio varianti tadqiqotchi folklorshunos O‘ktam Hakimovning shaxsiy fondida saqlanadi⁸. Tadqiqot obyekti sifatida O‘. Hakimovning fondidagi audio matn ko‘chirildi. Chiroqchi dostonchilik maktabi vakili hisoblangan Shomurod shoirning otasi Tog‘ay shoirdan yozib olingan varianti O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti arxivida bo‘lib, uni husnixat bilan bog‘liq ba’zi muommolariga qaramasdan o‘rganishga harakat qilinsa, tadqiqot uchun yangi tahlillar beradi. Harakatlar natijasida qiyoslansa, Tog‘ay shoir va Shomurod shoir variantlari aynan o‘xshash, bir xil qolip, bir xil shakl va mazmunga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Tog‘ay shoir variantida “Nurali” dostonidan keltirilgan quyidagi parcha Shomurod shoir variantida ham uchraydi:

*–Oyag‘imdi qo‘yamana, zinama-ya bo‘l zina,
Menga ixlas mo‘minlarga tag‘in bermagin guna,
Rasul egam chiqar bir kun Meraja,
Ravzaya pakingaya qo‘shilsa tanamaya bul tanang,*

⁴ Мамашукуров Қ. Нурали туркум дostonлари хақида. //XX аср ўзбек фольклоршунослиги антологияси.. – Тошкент: О‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – Б. 373-381.

⁵ Нурали. Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли. – Тошкент: Фафур Гулом, 1989. – Б. 378-381..

⁶ О‘zbek folklori. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2020. – В. 124

⁷ Нурали. Айтувчи: Фозил шоир Йўлдош ўғли. – Тошкент: Фафур Гулом, 1989. Б. 119.

⁸ <https://www.youtube.com/watch?v=GGoqWto-Qac>

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Otingnan aylanay yo Muhammad Mustafo⁹.

Abduolim Ergashev “Nurali” turkumiga kiruvchi dostonlarni Nuralining tug‘ilishi, bolaligi, o‘qish yillariga oid dostonlar (“Nuralining tug‘ilishi”, “Nuralining yoshligi”, “Nurali va besh yuz mulla bachcha”, “To‘qqiz yuz kun to‘y” “Malla savdogar”); Nuralining o‘smirlik yillariga oid dostonlar (“Oysanam”, “Suluvxon”, “Nuralining yutilishi”, “Jorxun maston”, “Suv parisi”); Nuralining yigitlik, balog‘atga yetib uylanishi, farzand ko‘rishiga doir dostonlar (“G‘upponoy”, “Nurali va Semurg”); Bosh qahramon Nuralining Go‘ro‘g‘li, Avaz sulolasining munosib vorisi epik hukmdor ekanini ko‘rsatuvchi dostonlar (“Sherali”, “Jahongir”, “Amirqul”, “Nuralining Avazni qutqarishi”, “Sheralining bandi bo‘lishi”) kabi guruhlariga ajratadi¹⁰. Shomurod shoirning “Nurali” dostoni varianti Nuralining yigitlik, balog‘atga yetib uylanish, farzand ko‘rishiga doir dostonlar sirasiga kiradi. Bu guruhga kiruvchi dostonlar Nuralining o‘n to‘rt yoshga kirganligidan boshlanadi.

Qiyosiy tadqiqot uchun “Nurali” dostonining Shomurod shoir va Fozil Yo‘ldosh variantlari tanlandi. Chunki boshqa variantlari nashr etilmaganligi birinchi sababi bo‘lsa, ikkinchidan badiiy mukammalligi variantning qiyoslanishi maqsadga muvofiqdir.

Shomurod shoirning “Nurali” dostoni varianti Nuralining o‘n to‘rt yoshligi davri bilan boshlanadi. Nurali tushida Xiromon parini ko‘rib, oshiq bo‘lib, bobosidan G‘irot otini so‘raydi. Bobosining otini minib, Kuyitur mamlakatiga sevar yorini izlab yo‘lga chiqadi. Nurali borganda Xiromon va qirqta parini devlar o‘g‘irlab g‘orga qamab qo‘ygan bo‘ladi. Parilarni qutqarish uchun arqon bilan g‘orga tushadi. Qutqarib, oxirida o‘zi chiqayotganda Nuralini izlab kelgan Ahmad sardor arqonni uzib yuboradi va parilarni olib qaytadi. Nurali g‘orga yiqilib, mayib bo‘lib qoladi. Yo‘lda parilar va G‘irot Ahmad sardordan qutulib Nuralini qutqarish uchun ortiga qaytadi. Mayib bo‘lgan Nuralini bir amallab qutqarib, G‘irot kamaridan tishlab Gurgan degan daryoni bo‘yiga olib boradi. U yerda Nuraliga sherlar hamla qiladi. G‘irot Nuralini sherlardan ham qutqaradi. Shu yerda lo‘lilar ko‘rib qolib, Nuralini aravaga ortib jo‘naydi. Tabiblari yo‘lda Nuralini davolaydi. Shu orada Avazxon va xotini ham farzandining ayrilig‘iga chiday olmay, hech narsaga qiziqmay, tilamchi bo‘lib qoladi. Yo‘lda ularni ham lo‘lilar ko‘rib, Nurali tirikligini, Hindistonda ekanligini aytib olib ketadi. Oradan qirq kun o‘tib, yo‘lda Nurali tuzalib, Hindistonga

⁹ Нурали. Айтувчи: Тоғай шоир Маҳмон ўғли. ЗУФА. Инв. – №14800

¹⁰ Эргашев А. Қашқадарё-Сурхондарё дostonчилигининг умумўзбек эпоси тараққиётидаги ўрни. Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2021. – Б. 159-160

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

yetadi va lo‘lilar barchasini topishtiradi. Avazxonni Hindiston mamlakatiga shoh qilib, qahramonlar murod-maqсадiga yetishgani bayon qilinadi¹¹.

Fozil Yo‘ldosh kuylagan “Nurali” variantida esa, “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarining deyarli hammasida keladigan asosiy boshlanma Go‘ro‘g‘lining farzandsizligi motivi bilan boshlanadi. Hasanson va Avazxonni farzand qilib olib, balog‘atga yetgach Go‘ro‘g‘li Hasanson Xon Dallini, Avazxonni buvish Intizorni olib beradi. Bular ikkalasidan ikki o‘g‘il dunyoga kelib, Hasansonning o‘g‘lini ismini Ravshanson, Avazxonning o‘g‘lini ismini Nurali qo‘yadi. Go‘ro‘g‘li bu ikkisini savodsiz, avom bo‘lib qolmasin deb madrasadan bir mulla topib o‘qitishga beradi. Ravshanson o‘qimay qochib keladi. Nurali o‘qishni tugatib kelib bobosining oldida yurgan kunlardan birida tush ko‘radi. Tushida Oqtosh elidan Mahmud podshohning qizi Marg‘umonni ko‘rganini, oshiq bo‘lganini Go‘ro‘g‘li bobosiga aytib otini so‘raydi.

Nurali Marg‘imon yorini izlab safarga otlanadi, shunday qilib keyingi voqealiklar dostonidagi asosiy qahramon Nurali bilan davom etadi.

Nurali Oqtosh eliga borib, Mahmud shohning qizi Marg‘imon parini olib qochadi va yo‘lda shohning lashkarlari bilan jang qiladi. Jangda Avazxonni Qayqam dev yordam beradi. Oradan vaqt o‘tib Nurali va Marg‘umonlarning o‘g‘il farzandi bo‘ladi. Farzandiga Jahongirxon deb ism qo‘yadi. Ular yo‘ldan adashib Maskan degan daryoning oldidan chiqadi. Daryodan o‘tayotganda ularni har tarafga oqizib ketadi. Jahongirxonni esa, baliq yutib ketadi. Baliqchi Jahongirni baliq qornidan chiqarib olib, keyingi sarguzashtlar Jahongirxon bilan davom etadi. Dostonning yakuni Jahongirxon onasi va otasini topib, bobosining yurtiga olib qaytadi. Go‘ro‘g‘li ularga to‘y-tomosha qilib berib doston yakunlanadi¹².

“Nurali” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Shomurod shoir kuylagan variantlari g‘oyaviyligi va tuzilish, jihatdan farq qiladi. Shomurod shoir variantida sarguzashtlar, asosan, Nurali obrazi bilan kechadi. Dostonidagi joy nomlari, asosiy qahramonlar hisoblangan Go‘ro‘g‘li, Avazxon, Nuralidan boshqa qahramonlarning nomlari ham farqlanadi.

Variant	Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li	Shomurod shoir
Qahramonlar nomlari	Go‘ro‘g‘li, Hasanson, Avazxon, Ravshanson, Nuralixon, Mahmud shoh, Jahongirxon, Soqibulbul, Qoracha izchi, o‘tinchi chol,	Go‘ro‘g‘li, Avazxon, Nurali, Sherali, Ahmad sardor, Soqibulbul, Aqilxon eshon

¹¹ <https://www.youtube.com/watch?v=rLcNpNrKA8s>

¹² Нурали. Айтувчи: Фозил шоир Йўлдош ўғли. – Тошкент: Фафур Гулом, 1989. – Б. 119.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

	Mamurxon, Boymamat, Boltaboy	
Pari nomlari	Yunus pari, Dalli, Buvish Intizort, Marg‘umon pari, Oqqiz kaniz,	Yunus pari, Misqol pari, Guloyim pari, Xiromon pari, Gulnor pari
Maston kampirlar	Qorakampir, Anor kampir	–
Joy nomlari	Chambil, Isfaxon, Gurjiston, Arzrum, Oqtosh, Ko‘yiqof, Bog‘i Eram,	Takayovmit, Chambil, Beshbuloq, Yakka tut, Turkman, Kuyitur, Kuyiqop, Makka, Madina, Dog‘iston, Hindiston, Gurjiston, Olmon, Misr, Turkiya, Xitoy, Chin-Mochin
Tog‘ nomlari	Qorakamar tog‘i	Asqar, Kuyitur, Kuyiqop
Daryo nomlari	Maskan daryo, Oqkamar daryo qismi nimi	Zahar daryo, Gurgan daryo
Qo‘yindi, qabr nomi	Toshmozor	–
Mifik obrazlar nomlari	Qayqam dev	Qirq Chilton, Xizr, Ilyos, Qizil dev, Oq dev, Qora dev
Mifik ot nomi	G‘irot, Majnunko‘k	G‘irot, Manjimko‘k
Payg‘ambarlar nomlari	–	Ibrohim payg‘ambar, Yusuf payg‘ambar, Muhammad payg‘ambar
Chohoryorlar	–	Abubakr, Umar, Usmon, Ali

Eng avvalo, dostonning epik qolipiga e‘tibor qaratsak. Epik qolipni uya qiyoslash mumkin. Uy o‘z shakli, tuzilishi va qismlariga ega bo‘lganidek, har bir doston ham o‘z shakliga ega. Baxshilar u uyning quruvchi va bezatuvchilaridir. Professor J. Eshonqulov epik formulalar dostoniga tayyor qolip vazifasini bajaradi deb tariflaydi¹³.

Har bir baxshining doston kuylashda o‘z epik qolipi bo‘lib, qaysi dostonni kuylashdan qat’iy nazar asosan shu qolipga tayanadi. Qahramonlar hisoblangan Alpomish yoki Go‘ro‘g‘lini tariflashda ham, yordamchi obrazlar Boychiborni yoki G‘irotni tariflashda ham bir xil qolipdan foydalanilgan. Boshqa epezdolar uchun ham aynan shunday. Misol uchun Shomurod shoir kuylagan “Nurali” dostonida ham, “Alpomish” dostonida ham qahramonlarni yo‘lga chiqish tasviri bir xil qolipda ifodalanadi:

Kecha-yu kunduz demadi,

¹³ Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. – Тошкент: Фан, 2018. – Б. 139.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Charchashni hech bilmadi.

Ko‘ring endi Boychibor,

Havolaba uchadi.

Bulutlarding pasidan

Uchib o‘tib boradi¹⁴.

Kechaya-kunduz demadi,

Ot jonuvor boradi.

Osmondag‘i julduzay

Jer-u ko‘kti bilmadi.

Qanotini jozdiya,

Ga jerlarga tiyadi,

Ga tiymayin boradi¹⁵.

Yoki “Nurali” dostonida Xiromon pari tilidan aytilgan quyidagi parcha ham Shomurod shoir kuylagan “Alpomish” dostonidan parchasida aynan malikalar tilidan kuylanadi.

Dugonalar dugana,

Qilmang meni begana.

Men seni suydim dugana,

Bir maydona uchaya.

Palaktiya qilsaya

Bo‘layimisha yagana.

Duganajon dugana

Nuralidan men bo‘mayman begana¹⁶.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan dostonlarda ham bunday qoliplar mavjud. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan “Nurali” varianti “Alpomish¹⁷” dostoniga badiiy va shakl jihatdan juda yaqin. Bu esa Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining doston kuylash mahoratidagi o‘ziga xoslikdir.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li “Nurali” dostonini kuylashda “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarining deyarli barchasi uchun umumiy bo‘lgan epik qolipga tayanadi. “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarining ko‘pchiligi, asosan, ikki-uch xil boshlamalar bilan boshlanadi: Go‘ro‘g‘lining ot yoki zot so‘rashi; Yunus va Misqol parilarni

¹⁴ <https://www.youtube.com/watch?v=553WxBHFIds>

¹⁵ <https://www.youtube.com/watch?v=ZE0hVltVngY>

¹⁶ <https://www.youtube.com/watch?v=553WxBHFIds>

¹⁷ Алпомиш. Айтувчи Фозил шоир ўғли. – Тошкент: Фан, 1999.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Kuhiqof va Eram bog‘idan olib kelishi; Go‘ro‘g‘lining farzandsizligi; Hasanxon va Avazxonlarni olib kelib Yunus va Misqol parilarga o‘g‘il qilib berish¹⁸.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan “Nurali” dostonida ham shu kabi boshlamalarni ko‘rish mumkin:

“Ilgari zamonda Go‘ro‘g‘li beklik qilib, Chambilda davron surib, har mamlakatdan bahodir beklar kelib xizmatda turib, Isfaxon mamlakatidan Xoldor o‘g‘li Hasanni olib kelib, o‘g‘il qilib oldi. Necha vaqtdan keyin Buldur qassobning o‘g‘li Avazxonni Gurjuston mamlakatidan olib keldi.

Go‘ro‘g‘lidan farzand bo‘lmagan edi. Go‘ro‘g‘lining katta xotini Og‘a Yunus pari Avazni yoqasidan solib, etagidan olib, o‘g‘lim deb mehrini qo‘yib qoldi¹⁹”. [shu doston – 119]

Shomurod shoir variantida bunday qolip ko‘zga tashlanmaydi. Doston Go‘ro‘g‘li va G‘irotni ta’riflash bilan boshlanadi:

“Oov, omon omonda, Taka tomonda, Chambilning elida, Turkmanning belida Go‘ro‘g‘li o‘tdi. Dong‘i Dog‘iston ketdi, ovozasi olamni tutdi. Ol Go‘ro‘g‘li kelishsa, beshikda bolalar yig‘lashmay jotdi. Ol G‘irot kelishsa, momolar ko‘rpa o‘ralishib jotdi”²⁰.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Shomurod shoir kuylagan “Nurali” dostoni variantlari badiiy shakl va mazmun jihatdan farq qiladi. Bu ikki dostonida umuman boshqa-boshqa g‘oya ilgari suriladi. Shomurod shoir variantida asosan qahramonning o‘lib-tirilish g‘oyasi (o‘lib-tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar), dualistik (ezgulik va yovuzlik kuchlari o‘rtasidagi kurash haqidagi asotiriy qarashlarni o‘zida aks ettirgan miflar) qarashlar yetakchilik qiladi. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida esa, asosan, qahramonlik yetakchilik qiladi. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida yetakchi qahramon dev bilan kurashmaydi, aksincha, qahramonga yordam beradi. Bu yerda dev obrazi ijobiy ko‘makchi obraz bo‘lib keladi. Shomurod shoir variantida esa, dev salbiy obraz etib tasvirlanadi, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash ifodalanadi. Bu kabi ko‘rinishni dostonidagi Ahmad sardor va Go‘ro‘g‘li, farzandlari Avazxon, Nuralilarga nisbatan oilaviy intregalarida, yani g‘arazli maqsad va harakatlarida ham ko‘rinadi.

¹⁸ Qarang: Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. O‘zbek xalq dostonlari. Aytuvchi: Po‘lkan shoir. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2021. // Malika Ayyor. O‘zbek xalq dostonlari. Aytuvchi: Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. // Avazxon. G‘ur‘ug‘li dostonlari. Aytuvchi: Raхmatulla Юсуф ўғли. – Toshkent: Ёзувчи, 1997. // Ravshan. O‘zbek xalq dostonlari. Aytuvchi: Ergash Jumanbulbul o‘g‘li. – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2019. // Далли. G‘ur‘ug‘li dostonlari. Aytuvchi: Эргаш Жуманбулбул ўғли. – Toshkent: ЎЗБЕКИСТОН ССР ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ НАШРИЎТИ, 1962. // Бозирган. G‘ur‘ug‘li dostonlari. Aytuvchi: Курбонназар Абдуллаев (Бола бахши). – Toshkent: Фан, 1962.

¹⁹ Нурали. Айтувчи: Фозил шoir Йўлдош ўғли. – Toshkent: Фафур Гулом, 1989. – Б. 119.

²⁰ <https://www.youtube.com/watch?v=GGQWto-Qac&t=2s>

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Bu dostonda bazi “Go‘ro‘g‘li” turkum (“Avazning arazi”, “Intizor”, “Malika ayyor”, “Ahmad sardor va Hasanxon”, “Ahmad sardor va Avaz”, “Avazxonning o‘limga hukm etilishi”, “Nurali va qari Ahmad”) dostonlaridagi kabi²¹, Ahmad sardor va qahramonlarning ziddiyati ifodalanadi. Abduolim Ergashev Ahmad sardor bilan Go‘ro‘g‘li va farzandlari o‘rtasidagi ziddiyatni “Avazning tug‘ilishi” dostonidan boshlanib, Avazxonning nasliy turkumiga kiruvchi dostonlarda davom etishini aytib o‘tadi. Bu holatni Avazxonni “o‘gay farzandligi” bilan izohlaydi²². Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida dostonning yarmidan keyin Jahongirxon yetakchi obraz vazifasiga chiqadi. G‘oyaviy jihatdan “Alpomish” dostoniga o‘xshab ketadi. Jahongirxonning ikkiga ayrilib ketgan onasi va otasini topish, birlashtirish birinchi planga chiqadi. “Alpomish”da ham Hakimbekka shu vazifa (g‘oya) yuklanadi²³.

Shomurod shoirning “Nurali” variantida ko‘makchi obrazlarning o‘rni katta ahamiyat tutadi. Ulardan eng asosiysi ot obrazidir. O‘zbek dostonlarida ot obrazi ba‘zan bosh qahramon darajasiga ko‘tariladi. U gapga tushunadi, zarur vaqtda hatto tilga kirib gapiradi, qahramonga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi, yanglishgan paytda tanbeh beradi, dushmanga qarshi kurashda qahramonni ehtiyot qiladi, jang maydonida qahramonga qo‘shilib dushman askarlariga hujum etib, tishlab, tepib, uni yo‘qotishda birga qatnashadi. Epik ot qahramon boshiga kulfat tushganda achinadi, yig‘laydi, yarador egasini jang maydonidan xalos qiladi, qattiq yaradorlik tufayli o‘z ustida behush bo‘lib qolgan qahramonning ahvolini payqab, uni bexavotir yerga eltadi, qo‘riqlaydi²⁴. H. Zarifov, M. Jo‘rayev, A. Musaqulov, A. Tilavov kabi folklorshunoslar ilmiy tadqiqotlarida dostonlarda epik ot obrazining mifologik, tarixiy talqini borasida qimmatli fikr-mulohazalarini berib o‘tadi²⁵. “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarida ot yetakchi qahramon darajasiga ko‘tariladi²⁶. Samoviy, mifologik ot hisoblangan G‘irot dostonida eng yetakchi o‘rinlarda namoyon bo‘ladi. Qahramonni eng og‘ir vaziyatlardan olib chiqadi. Nuralini chohdan chiqishi uchun ham asosiy vazifani bajaradi. Ot bilan bog‘liq bir epepod, mayib bo‘lgan Nuralini sherlar hujumidan qutqarishda ko‘rinadi.

²¹ Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.136.

²² Эргашев А. Қашқадарё-Сурхондарё дostonчилигининг умумўзбек эпоси тараққиётидаги ўрни. Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2021. – Б. 152-153.

²³ Alpomish. O‘zbek xalq dostonlari. Aytuvchi: Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. – Toshkent: Zukko kitobxon, 2022.

²⁴ Зарифов Х. Ўзбек халқ дostonларининг тарихий асослари бўйича текширишлар. Жанговор от образининг қадимий асосларига доир // Пўлкан шоир. – Т.: Фан, 1976. – Б. 65-88

²⁵ Qarang: Зарифов Х. Жанговор от образининг қадимий асосларига доир // Пўлкан шоир. – Т.: Фан, 1976. – Б. 65-88 // Жўраев М. Марказий Осиё халқлари астромифологиясида темир козиқ юлдузи. – Тошкент: Сўз санъати журнали, 2018. – Б. 48-55. // Мусоқулов А. Ўзбек халқ лирикаси./ От култи. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 228-242. // Тилавов А. От образи: тарих, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Сано-стандарт, 2021.

²⁶ Қаранг: Чори бахши Малла савдогар, 4-дафтар. – Б.27-28.//Қахҳор бахши Малла савдогар.// Қодир Раҳимов. Жорхун мастон // Нурали, – Б.72.// Таркибадахшон, 6-дафтар. – Б.96.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

“G’irot Gurgan daryoning suvini to’yib-to’yib ichib olib, qaytib kelsa, to’rtta sher Nuralini olaman deb turipti. Nurali yolg’iz qolgan bola, yuragida yo’qdir og’i-ola, qilichini qinidan sug’irib, sherlardan o’zini himoya qilib jotipti. Yarim tanasi Nuralini mayib edi. Uchalari sinib ketgan edi.

Shunda ko’ring Nuralini sherlardan qo’riqlab, G’irot kelib sherlarni tepib, oldidan kelganini tishlab otdi, keyinidan keganini tuvrilab tepdi”²⁷.

Dostonda Ahmad sardorning Go’ro’g’li, uning nabirasi Nurali o’rtasidagi qiyin vaziyatdan ham G’irot olib chiqadi. Ahmad sardorning maqsadiga erishishi uchun imkon bermaydi.

“Ot jonivor ikki putini orasiga kallasini iyib qoldi. Boshini tervatib chalg’itdi. Ahmad sardor ustidan tushib ketdi. Ko’ring haybon uch marta kishnab, Makkayi-Madina bilan Chambilga xabarni berib, Kuyiturga tamon haybon qaytdi. Hay egasi Nurali edida. Ahmad sardorni tushirib taylab, shu haydashda osmon, yer, bulut, tuman, to’zon bo’lib, Kuyiturga qarab iziga qaytdi”²⁸.

G’irot dostonning boshidan oxirigacha qahramonning asosiy ko’makchisi bo’lib ishtirok etadi. Biror yerda ikkinchi planga chiqib qolgani ko’rinmaydi. Umuman olganda dostondagi qahramon bilan bog’liq bo’lgan barcha sinov motivlarda Nurali G’irotsiz o’zi yengib o’ta olmaydi.

Bundan tashqari, bu dostonda ikkinchi bir ot obrazi, G’irotning ukasi *Manjimko’k* ham tasvirlanadi. *Manjimko’k* asosiy o’rinlarda ko’rinmasa ham, ikkinchi planda paydo bo’ladi. G’irot safardaligida yoki biror jarohatlanganda asosiy qahramonlar hisoblangan Go’ro’g’li, Avazxon, Nurali kabilar *Manjimko’k*ni G’irotning vazifasiga ko’taradi. Fozil Yo’ldosh o’g’li variantida ham *Majnunko’k* keltiriladi, lekin G’irotning ukasi sifatida tasvirlanmaydi.

Shomurod shoir variantida yana bir asosiy ko’makchi qahramon hisoblangan Soqibulbul obrazi bilan ham bog’liq farqli jihati ko’zga tashlanadi. Barcha Go’ro’g’li turkum dostonlarida, jumladan, Fozil Yo’ldosh o’g’lining “Nurali” variantida ham Soqibulbul qahramonga asosiy yordamchi bo’lib kelishidan tashqari, sayis, yani qahramonning otini qarovchisi sifatida tasvirlanadi²⁹. Shomurod shoir variantida esa, Soqibulbul sayis vazifasida kelmaydi. Dostonda G’irot, ukasi *Manjimko’k*, umuman Go’ro’g’lining sayisi bo’lib *Aqilxon to’ra* obrazi tasvirlanadi.

²⁷ <https://www.youtube.com/watch?v=ZE0hVltVngY>

²⁸ <https://www.youtube.com/watch?v=4cVJrHnIbK0>

²⁹ Qarang: Go’ro’g’lining tug’ilishi. O’zbek xalq dostonlari. Aytuvchi: Po’lkan shoir. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2021. // Malika Ayyor. O’zbek xalq dostonlari. Aytuvchi: Fozil Yo’ldosh o’g’li. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. // Нурали. Айтувчи: Фозил шоир Йўлдош ўғли. – Тошкент: Фафур Гулом, 1989. – Б. 119.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

“Aqilxon degan to‘ra bor edi. O‘zi juda ham otlarni bilar edi. Shunda Go‘ro‘g‘lini otini minganini bildi. Nuraliga duoni pirlari berdi”³⁰.

Shomurod shoir kuylagan “Ovsar dev bilan Gupsar dev”, “Nurali”ning mantiqiy davomi hisoblangan “Sheralining otasini izlab Hindistonga borishi” dostonlarida ham Go‘ro‘g‘lining sayisi, G‘irotning boquvchisi bo‘lib, Aqilxon tasvirlanadi.

“Sherali, nima qilay dunyoda ota-enasiz deb kanizlarga aytuvdi:

– To‘rajonim yig‘lamang, begim. Bir bedov bor. Otangizdi sayisi bor. Aqilxon eshon deydi. Aqilxon sakkiz yildan bermag‘an, Manjimko‘k, G‘irotning ukasini bog‘ib jotipty. Shul borib jilasangiz otangizdi otini beradi. Qilich, aslaha, sovu, qalqon hammasi Aqilxon eshon to‘rada, – dedi”³¹.

Ma‘lum bir hududlarda yashab mehnat qilayotgan xalq og‘zaki ijodida ijodkor shaxs o‘ziga xos odatlarni o‘zining yashash tarziga mansub ayrim voqealarni, ma‘lum darajada aks ettiradi. Badihago‘ylik jarayonida an’anaviy dostonga u yoki bu urf-odat, biron epizod kiritiladi va aksincha tushirib qoldiriladi. O‘sha kiritilgan yangi epizod xalq urf-odatlaridan, ruhiyatidan kelib chiqqanda va ma‘qul kelganda yashovchanlikka yo‘l topib dostonlarda doimiy o‘rinlardan biriga aylanib qoladi va dostonlarning mazmuniga singib ketib, ma‘lum bir g‘oyaviy maqsadni ifodalaydi³². Ana shunday jihat Shomurod shoir kuylagan “Nurali” dostonida **lo‘li** obrazining kelishida ko‘rinadi. Lo‘lilar obrazi dostonda yetakchi o‘rin tutadi. Dostonlarda lo‘li obrazining kelishi juda kam uchraydi, jumladan, “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarida, “Nurali” turkum va variantlarida kuzatilmaydi. Shomurod shoirning “Nurali” dostonida lo‘li obrazining kelishi, uning yangiligi, o‘ziga xosligidir. Dostonda lo‘li obrazining kelishini ikki xil sababga ko‘ra ifodalash mumkin: Birinchi sabab, Chiroqchi dostonchilik maktabi bilan bog‘liq. Chiroqchi dostonchilik maktabida lo‘lilardan ham baxshilar bo‘lgan. Boynazar Yo‘ldoshev Chiroqchi dostonchilik maktabi vakili Mardon shoirning Bahrom jugi shoir bilan aytishganini misol keltiradi³³. Shomurod shoir bu dostonni otasidan o‘rgangan. Demak shoirning ota-bobolari ham lo‘li baxshilar bilan aloqada bo‘lganligini ko‘rsatadi; ikkinchi sababi, baxshi, uning ota-bobolari yashagan hudud atrofida lo‘lilarning muntazam yashab kelishi. Shomurod shoir yashagan bugungi kundagi Yangi obod mahallasiga yaqin “Qirg‘iz”, “Alisher Navoiy” mahallalarida lo‘lilar istiqomat qiladi. Mahalliy xalq va lo‘lilar yashash tarzida umumiylik ko‘rinmasada, lekin qaysidir marosimlarda yoki

³⁰ <https://www.youtube.com/watch?v=GGogWto-Qac&t=2s>

³¹ <https://www.youtube.com/watch?v=rLcNpNrKA8s>

³² Эргашев А. Қашқадарё-Сурхондарё дostonчилигининг умумўзбек эпоси тараққиётидаги ўрни. Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2021. – Б. 198

³³ Йўлдошев Б. Қашқадарё бадияти. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 438

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

qaysidir maishiy turmish jarayonlarida bir-biri bilan munosabatga kirishgan³⁴. Asosiysi, hududiy muhit birlashtirgan. Ana shu muhit ham dostonga ko‘chgan, ijodkorga ta’sir qilgan.

Dostonda Nuralining mayib bo‘lganidan boshlab, lo‘lilar asosiy ko‘makchi obraz bo‘lib ifodalanadi. Dostonda lo‘lilar Nuralining sog‘ayishi, oilasi bag‘riga qaytishi, Avazxonning farzandini topishi kabi muhim vazifalarda ko‘rinadi. Hatto, Avazxonni Hindistonga lo‘lilarga shoh bo‘lish darajasigacha ko‘taradi. Lekin, lo‘lilarning bu kabi vazifalarni bajarishi G‘irotni ikkinchi planga chiqirmaydi. G‘irot har qanday holatda asosiy planda bo‘ladi. Bu kabi holat dostonning an’anaviyligini taminlab turadi. Xulosa qilib aytganda, G‘irot bilan Go‘ro‘g‘li, G‘irot bilan Hasan, G‘irot bilan Ravshan, G‘irot bilan Avaz, G‘irot bilan Nurali birgalikda va faqat birgalikdagina mukammal yaxlit obrazlarni tashkil etadi³⁵.

“Nurali” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Shomurod shoir variantlarida quyidagicha o‘xshash jihatlar ham ko‘zga tashlanadi:

1. Dostonning boshida asosiy qahramon Nurali o‘z yorini tushida ko‘radi va bobosining otini so‘rab safarga otlanishi.
2. Doston boshida Avazxon ikkinchi planga chiqib qoladi va bu jihat doston xususiyatini “Avazxon” biografik turkumiga kirmasligini ko‘rsatishi.
3. Dostonda daryo sinov motivi bo‘lib kelishi.
4. Doston oxiri qahramonlar ota-onasi bilan topishish voqealari bilan yakunlanadi (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida Jahongirxon ota-onasi Nurali va Marg‘umon bilan topishsa, Shomurod shoir variantida asosiy qahramon Nurali ota-onasi Avazxon va Guloyim bilan topishadi). Qahramonlar murod maqsadiga erishib, yaxshilik bilan tugashi.

Xalq dostonlari va qo‘shiqlarida daryo sinov motivi bo‘lib kelishi an’anaviy hisoblanadi³⁶. Daryo mifologik obraz bo‘lib, “Dunyo xalqlari mifologiyasi”da turli ramzlarda keladi³⁷. Aynan, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida G‘irotning kuchga to‘lganligi daryodan o‘tishi bilan sinaladi³⁸. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Shomurod shoir variantida daryo obrazining sinov motivi bo‘lib kelishi dostonning badiiy

³⁴ Dala ma’lumoti. “Qirg‘iz” MFY fuqolari Sh. Shodmon, M. Marjona bilan suhbatdan. // “A. Navoiy” MFY raisi T. Barno opa, profilaktika inspektori, leytenant Q. Shohruh bilan suhbatdan. // Shomurod shoirning qizi M. Dilfuza opa bilan suhbatdan. 27. 10. 2024

³⁵ Зарифов Х. Жанговор от образининг кадимий асосларига доир // Пўлкан шоир, – Т., 1976. – Б.75.

³⁶ Qarang: Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. O‘zbek xalq dostonlari. Aytuvchi: Po‘lkan shoir. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2021. // Kuntug‘mish. Aytuvchi: Ergash Jumanbulbul o‘g‘li. – Toshkent. G‘afur G‘ulom, 2015. // Shoberdi baxshi Boltayev “Alpomish” dostoni varianti. <https://www.youtube.com/watch?v=2dF0gLGjx0Y> // “Ovsar dev bilan Gupsar dev” Shomurod shoir. <https://www.youtube.com/watch?v=SyApYWbuRjA>

³⁷ Турдимов. Ш. Халқ кўшиқларида рамз. – Тошкент: Фан, 2020. – 109-110.

³⁸ Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. O‘zbek xalq dostonlari. Aytuvchi: Po‘lkan shoir. – T.: Ilm-ziyo-zakovat, 2021. – B.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

mukammaligini taminlagan. Bu epezdni baxshi juda to‘g‘ri tanlagan. Nega deganda daryo xalq o‘g‘zaki ijodida chegara, to‘siq, ayriliq ramzi bo‘lib keladi³⁹. Bundan tashqari daryo mifologiyada uch olamni birlashtiruvchi vosita hisoblanadi⁴⁰. Qahramon o‘sha to‘siqdan o‘tsagina maqsadiga erishadi. Daryodan o‘tish jarayonida ham qahramon, ham qahramonning oti sinovdan o‘tadi. Shomurod shoir variantida qahramon borishi kerak bo‘lgan manzilga borishda daryo orqali sinov jarayonidan o‘tsa, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida qahramon ko‘zlangan manzildan qaytish jarayonida daryoga duch keladi. Shu yerda baxshilarning epik bilimi yuzaga chiqadi. Sababi, qahramonlar daryodan o‘tish jarayonida ayriliqqa duch keladi. Folklorshunoslikda daryoning “ayriliq”, “chegara” ramzi ekanligi dostondagi qahramonlarning daryo orqali ayrilish voqealarida ham ko‘zga tashlanadi. Maskan daryo Nurali va yori Marg‘imomni ikki yoqqa oqizib ketadi. Dostonning ikkinchi qismi, ya’ni Jahongirxon bilan kechadigan voqealar shundan keyin boshlanadi.

“Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarining oxirgi aksariyat dostonlari romanik dostonlar hisoblanadi. Tadqiqotlarda romanik dostonlarning tarkibi nihoyatda murakkab ekanligi alohida ta’kidlanadi. Qahramonlik dostonlarda romanik ko‘rinishlarning borligi, romanik dostonlarda ham qahramonlik elementlari, jangnoma xususiyatlarining bo‘lishi, hatto bir dostonda bir necha mavzu baravar ishlangan bo‘lishi mumkinligi hisobga olinib, folklorshunoslikda bu tip dostonlar: a) qahramonlik-romanik, b) ishqiy-romanik, v) maishiy-romanik kabi ichki turlarga bo‘lib o‘rganiladi⁴¹. *Qahramonlik-romanik* dostonlarda qahramonlik xususiyatlari ustun tursa, *ishqiy-romanik* dostonlarda sevgi mojarolari, sarguzashtli voqealar tasviriga alohida e’tibor beriladi. *Maishiy-romanik* dostonlarda esa realistik momentlar, mavjud tuzumdan norozilik kayfiyatlari, maishiy turmush bilan bog‘liq turli-tuman tafsilotlarni tasvirlash yetakchilik qiladi⁴².

Shunga ko‘ra “Nurali” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti *qahramonlik-romanik* doston hisoblansa, Shomurod shoir varianti *maishiy-romanik* doston hisoblanadi. Ahmad sardor va Go‘ro‘g‘li, Avazxon, Nuralilar o‘rtasida yurt, ornomus talashish dostonning asosiy mazmuni hisoblanadi. Dostonda Ahmad sardorning Nuralining Xiromon yorini olib qo‘yib, Go‘ro‘g‘lining yurtiga egalik qilish maqsadi bo‘ladi, hokimiyatga erishish niyati turadi. Dostondagi voqealar rivoji Ahmad sardor va Nurali o‘rtasidagi konfliktda yuzaga keladi. Doston oxiri Avazxon Hindiston mamlakatiga shoh bo‘lishi bilan yakunlanadi. Ko‘rinadiki, dostonda

³⁹ Турдимов. Ш. Халқ кўшиқларида рамз. – Тошкент: Фан, 2020. – 110-111.

⁴⁰ Река. Мифы народов мира. В двух томах. 2-том. – Москва: Советская энциклопедия, 1992. Т.2. – 374-376 с.

⁴¹ O‘zbek folklori. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2020. – B. 124

⁴² Саидов М. Ўзбек дostonчилигида бадий маҳорат. – Тошкент. 1969. – Б. 48-51.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

maishiylik yetakchilik qiladi. Shunga ko‘ra Shomurod shoir kuylagan “Nurali” variantini *maishiy-romanik* dostonlar turiga kiritish mumkin.

Shomurod shoir kuylagan “Nurali” variantida tush, safar motivlarining kelishi, qahramonning epik oti bo‘lishi, yordamchi-homiylar tomonidan ko‘mak berilishi, epik makon, epik joy nomlarining kelishi, qahramon ma’lum bir sinovlardan o‘tishi, maqsadiga erishishi dostonning an’anaviyligini taminlaydi. Bu esa shoirning epik bilimiga ega ekanligi, qolaversa, doston kompozitsion va badiiy-g‘oyaviy jihatdan mukammal, xalqona ifodaning o‘ziga xosligi bilan o‘z qimmatiga egadir.

Adabiyotlar:

1. Мамашукуров Қ. Нурали туркум дostonлари ҳақида. //XX аср ўзбек фольклоршунослиги антологияси.. – Тошкент: О‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.
2. Ergashev A. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi. – Toshkent: Fan, 2008.
3. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. – Тошкент, 1979.
4. Мирзаева М. Халқ дostonларида туркумлик масаласи // Ўзбек халқ ижоди. – Т.: Фан, 1967.
5. Нурали. Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли. – Тошкент: Фафур Гулом, 1989.
6. <https://www.youtube.com/watch?v=GGoqWto-Qac>
7. Турдимов Ш. Ўзбек мифологияси ва фольклори. – Тошкент: Илм ва фан, 2023.
8. Тилавов А. От образи: тарих, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Сано-стандарт, 2021.
9. Egamqulov K. Janubiy O‘zbekiston dostonchilik maktablarining o‘ziga xos xususiyatlari. – Toshkent: Til va adabiyot uz., 2023. – 4-son
10. Эшонкулов Ж. Миф ва бадий тафаккур. – Тошкент: Фан, 2019.